

TAKOFULNING MINTAQALAR BO‘YICHA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI

*Naimova Mashhura Qobiljon qizi
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
magistratura bosqichi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkkur maqolada islomiy sug‘urta– takoful tushunchas hamda takofulning mintaqalar bo‘yicha rivojlanish tahlili haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: takoful, sug‘urta, islom sug‘urta, tabarru, smikro-sug‘urta (microinsurance), “participation insurance”.

Аннотация: Аннотация: В данной статье говорится о понятии исламского страхования – тафаул и анализе развития тафаула по регионам.

Ключевые слова: тафофул, страхование, исламское страхование, табарру, микрострахование, «страхование участия».

Abstract: This article talks about the concept of Islamic insurance - takaful and an analysis of the development of takaful by region.

Key words: takoful, insurance, Islamic insurance, tabarru, microinsurance, “participation insurance”.

Bugungi kunda islom sug‘urtasi islom bankiga qaraganda sekinroq rivojlanmoqda. Bu sohada bank qoidalari, shuningdek, Malayziya qoidalari dunyoda birinchi o‘rinda turadi. Malayziya ikki tomonlama bank tizimiga ega bo‘lgan birinchi davlat bo‘lib, bir vaqtda islomiy va an’anaviy bank xizmatlarini ko‘rsatadi. 1983 yildagi Islom banklari to‘g‘risidagi qonun Markaziy bankka yangi islom banklarini yaratish va nazorat qilish huquqini bergen bo‘lsa-da, moliya vaziri qaror qabul qilish bo‘yicha yakuniy vakolatni saqlab qoladi. Islom sug‘urtasi biznesi rivojlanishning dastlabki bosqichida bir oz oddiyroq ko‘ringan. Takaful tadqiqotlari bo‘yicha nashrlar 2017-yildan boshlab jadal rivojlanishni va islomiy sug‘urta mahsulotlari turlarining ko‘payib boshladи.

“Takoful” atamasi arab tilidagi “kafala”, ya’ni “kafil bo‘lmoq” fe’lidan kelib chiqadi va “o‘zaro kafolat” yoki “bir-biri to‘g‘risida o‘zaro qayg‘urish” ma’nolarini anglatadi. Mohiyatan, islomiy sug‘urtalash – takoful an’anaviy sug‘urtalashdan tubdan farq qiladi. Takoful tizimi asosida “tabarru” tushunchasi yotadi. “Tabarru” so‘zi arab tilidan olingen bo‘lib, “sovg‘a” yoki “xayr-ehson” degan ma’nolarni anglatadi. Bu esa shuni bildiradiki, har bir takoful ishtirokchisi zarurat tug‘ilganda boshqa a’zolarga chin dildan va manfaat ko‘zlamagan holda yordam berish niyatida bo‘lishi lozim.

An’anaviy sug‘urtaning asosiy maqsadi — sug‘urta operatsiyalaridan daromad olishdir. Albatta, sug‘urtalanuvchi ham bu jarayondan foyda ko‘radi, chunki bunday

sug‘urta uning faoliyatidagi xavf-xatar darajasini kamaytiradi va moliyaviy barbod bo‘lishdan himoya qiladi. Ammo takoful tizimi bu jarayonga g‘arazsiz yordam ko‘rsatish tamoyili asosida yondashadi va foydani emas, ijtimoiy birdamlikni ustuvor deb biladi.

So‘nggi besh yil ichida (2020–2024 yillar) islomiy sug‘urta tizimi – takoful – jahon bozorida barqaror o‘sish sur’atini namoyish etdi. Biroq, ushbu o‘sish mintaqalar kesimida bir tekis taqsimlanmagan. Quyida Yaqin Sharq, Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika, Janubiy Osiyo hamda Yevropa mintaqalarida takoful industriyasining rivojlanish tendensiyalari, statistik ko‘rsatkichlari va xususiyatlari tahlil qilinadi.

1-jadval

2020–2024 yillarda mintaqalar bo‘yicha takoful rivojlanishi¹

Mintaqa	Asosiy davlatlar	Yillik o‘sish sur’ati (2020–2024)	Asosiy xususiyatlar
Yaqin Sharq	GCC (Saudiya Arabiston, BAA)	12–15% (barqaror)	Yirik hajm, neft iqtisodi bilan bog‘liq, hayot bo‘lmagan segment ustun
Janubiy Sharqiy Osiyo	Malayziya, Indoneziya, Bruney	7–10% (sekinroq, biroq mustahkam)	Oilaviy takoful ustun, bank bilan integratsiya (bankatakoful)
Afrika	Sudan, Nigeriya, Keniya	5–8% (siyosiy va iqtisodiy omillarga bog‘liq)	Ko‘proq mikro-takoful, qishloq xo‘jaligi va sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan
Janubiy Osiyo	Pokiston, Bangladesh	4–6% (mahalliy talab asosida)	Aholi zichligi yuqori, iqtisodiy muvozanatga bog‘liq
Yevropa	Buyuk Britaniya, Turkiya, Germaniya	3–5% (ko‘proq diaspora asosidagi talab)	Regulyatsiya kuchli, lekin bozor kichik; innovatsion yechimlar

2022-yilda Yaqin Sharq mintaqasida takoful bo‘yicha jami badallar hajmi 22 milliard AQSh dollariga yaqinlashdi. Ushbu hajmning asosiy qismini GCC davlatlari (asosan Saudiya Arabiston, BAA, Quvayt, Qatar, Bahrayn va Ummon) ta'minlab,

¹ Market Research Future. (2024). Takoful Market Size, Share, Report, Forecast 2034. IMARC Group. (2024). Takoful Market Size, Share, Growth, Trends Report, 2033. EIN Presswire. (2024). Takoful Market Projected for 15.2% CAGR, Reaching 199.64 Billion by 2034. Manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

ularning hissasi 16,7 milliard AQSh dollari yoki global bozorning 55,7 foizini tashkil etdi.

Saudiya Arabiston 14,2 mlrd USD bilan mintaqada eng yirik bo‘lib, uning ta’midotidagi o‘sish sur’ati 26,9% ni tashkil etdi. Ikkinchchi o‘rinda Eron turibdi (5,4 mlrd USD, 6% o‘sish), Qatarning badallari hajmi esa 0,527 mlrd USD bo‘lsa-da, yillik o‘sishi 72,5% ni tashkil etib, jadal o‘sish namunasini ko‘rsatdi(2.1.2-rasm). Qolgan GCC davlatlari (Birlashgan Arab Amirliklari, KSA tashqarisidagi OTM) jami taxminan 2,0 mlrd USD ga yaqin badal bilan bar grafikka kiritilgan. Ushbu grafik Saudiya va Eron bozorlarining uqt ir aloqasi va ularning GCCdagi dominant o‘rnini aniq ko‘rsatib beradi.

2010–2024 yillar oralig‘ida Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida, xususan, Malayziya, Indoneziya va Bruneyda takoful (islomiy sug‘urta) bozori sezilarli o‘sish sur’atlarini namoyon etdi. Bu davrda Malayziya takoful sektori barqaror va yuqori o‘sish sur’atlari bilan ajralib turdi, 2011-yilda 24% o‘sish qayd etilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 9.8% ni tashkil etdi . Indoneziyada esa 2011-yilda 25% o‘sish sur’ati kuzatilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 4.0% gacha pasaygan . Bruneyda esa 2014-yilda 70% o‘sish qayd etilgan bo‘lsa, 2024-yilda –0.5% lik pasayish kuzatilgan.Ushbu o‘zgarishlar mintaqadagi iqtisodiy sharoitlar, aholining islomiy moliyaviy mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyoji va hukumatlarning qo‘llab-quvvatlash siyosatlari bilan bog‘liq. Malayziya va Indoneziyada hukumatlar islomiy moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratgan, bu esa takoful bozorining o‘sishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatgan . Bruneyda esa iqtisodiy diversifikatsiya va raqamli transformatsiya jarayonlari takoful sektorining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Umuman olganda, 2010–2024 yillar davomida Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida takoful bozori barqaror o‘sishni namoyon etdi, bu esa islomiy moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabning ortib borayotganligini ko‘rsatadi.

Malayziya 2022-yilda MYR 9,8 milliard (taxminan \$4,13 milliard) yig‘im to‘plab, butun mintaqqa kontributsiyalarining 70% dan ortig‘ini tashkil etdi. Bu mamlakatda oilaviy takoful segmenti 2021-yilda 25,3%, 2022-yilda esa 15,5% o‘sish ko‘rsatdi. Shu bilan birga, yangi biznes mukofotlari hajmi yil davomida 18,3% ga oshdi, bunda ipoteka hayot sug‘urtasi (MRTT) va sog‘lijni saqlash polislari asosiy rol o‘ynadi.Indoneziya bozorida esa 2021-yilda yuqori o‘sish (35,6%) qayd etilgan bo‘lsa, 2022-yilda o‘sish sur’ati 3,7% atrofida bo‘ldi. Bu holat asosan oilaviy takoful segmentining to‘yinganligi va ba’zi investitsiyaviy mahsulotlarga bo‘lgan talabning pasayishi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, umumiy takoful (nohayot) segmenti, ayniqsa avtomobil sug‘urtasi, 2022-yilda 38% o‘sish bilan faol rivojlandi (2021-yilda 23,8%).Takoful mahsulotlarining aholiga kirib borish darajasi (penetratsiyasi) ham oshmoqda: masalan, Indoneziyada 2020-yilda bu ko‘rsatkich 5% bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda aholining 9% qismi qandaydir takoful mahsulotiga ega bo‘ldi. Bu jarayonda

InsurTech startaplari va raqamli platformalar muhim rol o‘ynadi. Bruney davlatida esa takoful bozori 2022-yilda \$114,5 millionni tashkil etib, 6,9% o‘sish ko‘rsatdi. Umumiy sug‘urtaning 82% ulushi takofulga to‘g‘ri kelgan va u milliy sug‘urta bozorining 35% qismini egallagan.

Filippin esa 2022-yildan boshlab takoful bozorini rivojlantirish maqsadida ilk normativ bazalarni joriy eta boshlagan bo‘lib, mintaqadagi istiqbolli yangi bozor sifatida baholanmoqda.

Janubiy Osiyo mintaqasida (xususan, Pokiston, Bangladesh, Maldiv orollari) takoful bozori nisbatan kichik hajmda shakllangan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda sezilarli o‘sish dinamikasi kuzatilmoxda. Ushbu mintaqqa ko‘pincha Yaqin Sharq bilan birgalikda “Middle East and South Asia (MESA)” deb nomlangan segment tarkibida tahlil qilinadi. Islomiy moliya xizmatlari bo‘yicha xalqaro standartlar ishlab chiquvchi IFSB (Islamic Financial Services Board) tomonidan e’lon qilingan hisobotga ko‘ra, 2022-yilda MESA hududidagi jami takoful yig‘imlari hajmi 6,0 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, uning asosiy qismi Eron va Arab davlatlariga to‘g‘ri keladi. Janubiy Osiyo mamlakatlarining ulushi esa ushbu umumiy hajmning taxminan 2% atrofida deb baholanmoqda².

2022-yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Janubiy Osiyo mintaqasi (xususan, Pokiston, Bangladesh va Maldiv orollari) bo‘yicha takoful bozorining hajmi nisbatan kichik bo‘lsa-da, mintaqaviy darajada o‘sish dinamikasi ijobiy baholanmoqda. IFSB (Islamic Financial Services Board) hisobotlariga asosan, ushbu mintaqqa ko‘pincha “Middle East and South Asia (MESA)” segmenti tarkibida tahlil qilinadi va 2022-yilda MESA hududidagi jami takoful mukofotlari hajmi 6,0 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, Janubiy Osiyo mamlakatlarining ulushi atigi 2% (ya’ni taxminan 120 mln USD) atrofida baholangan.

Biroq, mamlakatlar kesimida tahlil shuni ko‘rsatadiki, Pokiston mintaqadagi eng yirik takoful bozoriga ega bo‘lib, 2022-yilda 260 million AQSh dollari miqdorida mukofot yig‘gan. Bunda, ayniqsa, umumiy (non-life) segmentdagi o‘sish sur’atlari (+27,1%) yuqori bo‘lib, bu yong‘in va mol-mulk sug‘urtasi xizmatlariga talab oshganini ko‘rsatadi. Bangladeshda esa takoful asosan hayot sug‘urtasi ko‘rinishida shakllanib, 2022-yilda sektorga oid mukofot yig‘imlari 100–150 million dollar oralig‘ida baholangan. Bozorda faoliyat yuritayotgan “Prime Islami Life” va “Fareast Islami Life” kabi yirik kompaniyalar minglab yangi shartnomalar tuzayotgani sektor salohiyatini bildiradi. Maldiv orollari kabi kichik bozorli davlatda ham 2022-yilda 11,8 million dollar miqdorida takoful mukofotlari yig‘ilgan bo‘lib, bu o’tgan yilga nisbatan +29,4% o‘sish deganidir. Bu kabi ko‘rsatkichlar, hatto kichik davlatlar ham islomiy

² Islamic Financial Services Board (IFSB). (2023). Islamic Financial Services Industry Stability Report 2023.

sug‘urta xizmatlariga ehtiyoj sezayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, Hindiston va Nepalda diniy moliyaviy xizmatlarga nisbatan qonunchilikdagi cheklovlar sababli to‘laqonli takoful operatsiyalari yo‘q. Ular faqat ayrim kooperativ yoki mikro-sug‘urta (microinsurance) ko‘rinishida faoliyat yuritmoqda.

Yevropa, Shimoliy Amerika, Markaziy Osiyo hamda boshqa musulmon aholisi nisbatan kam bo‘lgan mintaqalarda takoful bozori hozircha endigma shakllanmoqda va global islomiy sug‘urta industriyasida ularning ulushi nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda. 2022-yil yakunlariga ko‘ra, IFSB (Islamic Financial Services Board) tomonidan “boshqa mintaqalar” (Others) deb tasniflangan guruhga kiruvchi mamlakatlar – ya’ni Yevropa, Amerika va boshqa ayrim davlatlar – jami \$0,6 milliard atrofida takoful mukofotlari yig‘gan. Bu raqam global takoful bozorining atigi 2 foiziga teng.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida takoful mahsulotlari keng joriy etilmagan. Bunga asosiy sabab sifatida musulmon aholining past ulushi va moliyaviy-huquqiy muhitning o‘ziga xosligi ko‘rsatiladi. 2008-yilda Buyuk Britaniyada “Salaam Halal Insurance” kompaniyasi hayot bo‘lmagan (non-life) islomiy sug‘urta xizmatlarini taklif qilgan bo‘lsa-da, bozordagi qiyinchiliklar tufayli qisqa fursat ichida faoliyatini to‘xtatgan. Shunga qaramay, Londondagi Lloyd’s sug‘urta bozorida ayrim sindikatlar (masalan, Cobalt Underwriting) retakoful yo‘nalishida faoliyat yuritmoqda – ular Yaqin Sharq va Osiyodagi takoful operatorlarining qayta sug‘urtasini ta’minlab bermoqda³.

Turkiyada “participation insurance” konsepsiysi asosida shakllangan islomiy sug‘urta segmenti yil yakuniga kelib \$1 milliard atrofida mukofot yig‘imiga erishgan va bu mamlakat umumiy sug‘urta bozorining 5% ini tashkil etgan. Buyuk Britaniyada faoliyat yuritayotgan qayta takoful (retakoful) sindikatlari, jumladan Cobalt Underwriting platformasi orqali taxminan \$0.02 milliard atrofida mukofot yig‘ilgan. Shimoliy Amerikada (asosan AQSh va Kanada) islomiy sug‘urta mahsulotlari faqat ba’zi jamoaviy (kooperativ) dasturlar shaklida mavjud bo‘lib, umumiy yig‘im hajmi 2022-yilda atigi \$0.6 milliardni tashkil etdi.

Markaziy Osiyo davlatlari (Qozog‘iston, O‘zbekiston va b.) Yevropa va Osiyo o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik bo‘lib, bu hududlarda islomiy moliya tez sur’atlar bilan joriy etilmoqda. Xususan, Qozog‘istonda 2020-yilda takoful qonunchiligi qabul qilindi va 2022-yilga kelib birinchi takoful kompaniyalari litsenziya oldi – bu mintaqqa Rossiya va Xitoy bilan chegaradosh bo‘lgani uchun, kelgusida transchegaraviy sug‘urta operatsiyalari uchun platforma bo‘lishi mumkin. Bularning barchasi Yevropa uchun ham bilvosita imkoniyat yaratadi: xalqaro yirik sug‘urta guruhlarining yevropalik mutaxassislari ushbu yangi bozorlarni o‘zlashtirish barobarida tajriba orttirib,

³ Atlas Magazine. (2023). Takoful development across Europe and MENA.

keyinchalik uy bozorlarida ham takoful yo‘nalishini yo‘lga qo‘yishga harakat qilishlari mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlarida islomiy moliyaviy xizmatlar, jumladan takoful (islomiy sug‘urta) tizimi, so‘nggi yillarda bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Garchi mintaqada takoful faoliyati hali keng miqyosda joriy etilmagan bo‘lsa-da, mavjud iqtisodiy va demografik sharoitlar mazkur sektorning istiqbolli yo‘nalish ekanini ko‘rsatmoqda. Quyida Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston misolida takoful segmentining 2020–2024 yillar oralig‘idagi yillik o‘sish sur’atlari tahlil qilinadi. 2020–2024 yillar oralig‘ida Markaziy Osiyo davlatlarida takoful sohasining yillik o‘sish sur’atlari bosqichma-bosqich ortib borgan. Jumladan, Qozog‘iston va O‘zbekistonda bu soha ancha faollashib, 2024 yilga kelib mos ravishda 15% va 10% o‘sishga erishishi prognoz qilinmoqda.

Qozog‘iston mintaqada islomiy moliya xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha yetakchi davlat hisoblanadi. 2023 yil yakuniga ko‘ra, mamlakatda islomiy moliyaviy aktivlar hajmi 699 million AQSh dollariga yetgan bo‘lib, bu 2020 yildagi ko‘rsatkichga nisbatan sezilarli o‘sishni anglatadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2020–2024 yillar oralig‘ida Qozog‘istonda takoful sohasining o‘sish sur’ati mos ravishda 5%, 7%, 9%, 12% va 15% bo‘lgan. Mamlakatda 2033 yilga borib islomiy moliyaviy aktivlar hajmi 6,3 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda.

O‘zbekiston islomiy moliya tizimini bosqichma-bosqich tatbiq etayotgan davlat sifatida 2020 yilda takoful sohasida 3% ga yaqin o‘sish qayd etgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib bu ko‘rsatkich 10% atrofida prognoz qilinmoqda. Islomiy banklar va sukuk emissiyasi bilan bir qatorda takoful xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Bunday sharoitda, ayniqsa, mikro-takoful va kooperativ sug‘urta mahsulotlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi davlatlarda esa islomiy moliyalashtirish infratuzilmasi nisbatan sust rivojlangan bo‘lib, takoful sohasidagi yillik o‘sish sur’atlari mos ravishda 1–6% oralig‘ida baholanmoqda. Jumladan, Qirg‘izistonda 2020 yilda 2% darajadagi o‘sish 2024 yilga kelib 6% ga yetishi kutilmoqda. Tojikiston va Turkmaniston esa har yili 1–2 foizlik bosqichli o‘sish sur’atlarini ko‘rsatmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi uchun takoful sektori hozircha boshlang‘ich bosqichda turgan bo‘lsa-da, islomiy moliyaga bo‘lgan ehtiyoj va aholining diniy afzallikkleri sababli bu sohaning salohiyati yuqori baholanmoqda. Shu sababli, mintaqada davlatlarida regulatorlar, bank sektoridagi islomiy moliya instituti va xalqaro hamkorlarning qo‘shma harakatlari orqali takoful segmentining jadal rivojlanishi ta’minlanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U.Dadabayev. Islom moliyasida sug‘urta munosabatlari: oilaviy takofulning rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. VII son – Noyabr, 2023. 250-256
2. Caspian Post. (2023). Kazakhstan Poised to Lead Growth of Islamic Finance in Central Asia.
3. Atlas Magazine. (2023). Takoful development across Europe and MENA.
4. IFSB (2023), Atlas Magazine, takoful-malaysia.com.my va muallif tomonidan to‘plangan statistik ma’lumotlar asosida tayyorlangan.
5. Market Research Future. (2024). Takoful Market Size, Share, Report, Forecast 2034. IMARC Group. (2024). Takoful Market Size, Share, Growth, Trends Report, 2033. EIN Presswire. (2024). Takoful Market Projected for 15.2% CAGR, Reaching 199.64 Billion by 2034. Manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.
6. Islamic Financial Services Board (IFSB). (2023). Islamic Financial Services Industry Stability Report 2023.